Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 33
TABIIY FANLAR

FARG'ONA VILOYATI MEHNAT RESURSLARINING BUGUNGI HOLATI

Jumanazar Zokirjon o'g'li Mirzatillayev*
Farg'ona davlat universiteti muataqil izlanuvchisi
✉ mirzatillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati mehnat resurslarining bugungi holati, ularning hududiy taqsimlanishi, shakllanish omillari hamda bandlik va ishsizlik darajasining hududiy xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning demografik salohiyati, urbanizatsiya jarayonlari va mehnat bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, mehnat migratsiyasi, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Farg'ona viloyati, mehnat resurslari, mehnat bozori, bandlik, ishsizlik, aholi, demografik salohiyat, urbanizatsiya, migratsiya, hududiy tafovutlar, iqtisodiy rivojlanish, aholi geografiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743884

KIRISH

Mehnat resurslari har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari va aholi farovonligi bevosita mehnat resurslarining miqdori, sifati hamda ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va mehnat migratsiyasining faollashuvi mehnat bozorining hududiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Farg'ona viloyati respublikaning eng zich aholi yashaydigan va mehnat resurslari salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda mehnat yoshidagi aholi ulushining yuqoriligi, yoshlar salmog'ining katta ekanligi hamda urbanizatsiya jarayonlarining faol kechishi hudud iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozoridagi hududiy tafovutlar, yangi ish o'rinlarini yaratish zarurati, tashqi mehnat migratsiyasi va ishsizlik darajasi kabi masalalar ilmiy tahlilni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Farg'ona viloyati mehnat resurslarining zamonaviy holatini statistik ma'lumotlar asosida baholash, ularning hududiy xususiyatlarini aniqlash hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat [5].

Natija va muhokama. Aholi tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda erkaklar va ayollar soni deyarli muvozanatlashgan. 2026-yil boshida erkaklar ulushi 50,5 foiz, ayollar esa 49,5 foizni tashkil etgan. Bu respublika bo'yicha kuzatilayotgan demografik nisbatga deyarli mos keladi hamda mehnat resurslarining shakllanishi va gender tarkibining barqarorligini ifodalaydi.

Aholining katta qismi shahar va shaharchalarda istiqomat qiladi. 2026-yil bahori holatiga ko'ra, viloyat aholisining 56,7 foizi shaharlarda, 43,3 foizi qishloq joylarda yashaydi. Bu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib, Farg'ona viloyatida urbanizatsiya jarayoni faol kechayotganini ko'rsatadi. Viloyatning

aholi punktlari tizimi, ayniqsa Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon va Quvasoy shaharlari atrofida shakllangan yirik shahar aglomeratsiyasi bilan ajralib turadi. Ushbu shaharlar sanoat, xizmat ko‘rsatish, transport va ta’lim markazlari sifatida nafaqat viloyat, balki butun Farg‘ona vodiysi aholisi uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy markaz vazifasini bajaradi. Natijada qishloq aholisining shaharlarga migratsiyasi va shahar atrofi hududlarining kengayishi urbanizatsiya darajasining ortishiga xizmat qilmoqda. Demografik o‘sish sur’atlari ham viloyatning respublikadagi yetakchi o‘rnini tasdiqlaydi. 2025-yilda viloyatda 98,3 ming nafar tug‘ilish, 18,7 ming nafar o‘lim qayd etilib, 79,6 ming kishilik tabiiy o‘sish kuzatilgan. Shu bilan birga, migratsiya saldosi biroz manfiy bo‘lsada, tabiiy o‘sishning yuqoriligi umumiy aholi sonining ortishini ta’minlamoqda. Umuman olganda, Farg‘ona viloyati respublikaning eng yirik demografik hududlaridan biri bo‘lib, aholi sonining ko‘pligi, urbanizatsiya darajasining yuqoriligi, mehnat resurslarining salmoqli ulushi hamda zich aholi punktlari tizimi bilan ajralib turadi. Viloyatning respublika aholisidagi 11 foizlik ulushi, aholi soni bo‘yicha 2-o‘rinda turishi va shahar aholisi ulushining yuqoriligi uning O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega hudud ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, So‘x tumani 88,7 ming aholi bilan respublikada 148-o‘rinda turadi. Bunga tumanning eksklav hududda joylashganligi, yer maydonining cheklanganligi va transport-geografik omillar sabab bo‘ladi. Xuddi shuningdek, Yozyovon va Furqat tumanlari ham viloyatning nisbatan kam aholi istiqomat qiluvchi hududlari hisoblanadi.

2026-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida jami 10 986 ta qishloq aholi punkti (QAP) mavjud bo‘lib, ulardan 970 tasi Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Natijada viloyat respublikadagi jami qishloq aholi punktlarining 8,8 foizini o‘zida jamlagan. Bu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatining mamlakat qishloq aholi joylashuvi tizimida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Mehnat resurslari har qanday hududning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mehnat resurslari sonining o‘sishi, hududiy taqsimlanishi, bandlik va ishsizlik darajasi ishlab chiqarish salohiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Farg‘ona viloyati respublikaning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lib, mehnat resurslari hajmi bo‘yicha ham yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

2025-yilda Farg‘ona viloyatida mehnat resurslari soni 2 200,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2016-yildagi 2 016,4 ming kishiga nisbatan 184,5 ming kishiga yoki 9,1 foizga oshgan. Farg‘ona viloyatning respublika mehnat resurslari bo‘yicha ulushi 10,7 foizni tashkil etiadi.Respubliknia ma’muriy hududlari orasida Samarqand viloyatidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Samarqand viloyatida mehnat resurslari soni 2 380,0 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida 2 080,0 ming kishi, Andijon viloyatida 1 970,0 ming kishi, Toshkent viloyatida esa 1 840,0 ming kishini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar Farg‘ona viloyatining mamlakat mehnat salohiyatidagi muhim o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Viloyatda aholi sonining yuqoriligi, tug‘ilish darajasining nisbatan katta bo‘lishi va yosh aholi salmog‘ining yuqoriligi mehnat resurslari hajmining ortishiga xizmat qilmoqda [7].

Farg‘ona viloyati maydoni jihatidan respublikaning eng kichik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududi taxminan 6,8 ming km² bo‘lishiga qaramasdan, mehnat resurslari soni 2 200,9 ming kishiga yetgan. Taqqoslash uchun, Navoiy viloyatida mehnat resurslari soni 580,0 ming kishi, Buxoro viloyatida 1 100,0 ming kishi, Toshkent viloyatida esa 1 840,0 ming kishi bo‘lsa-da, ularning hududi Farg‘ona viloyatidan bir necha barobar katta hisoblanadi. Bu holat Farg‘ona viloyatida mehnat resurslari zichligining juda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Natijada hududda ishchi kuchi taklifi yuqori bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda [3, 4, 5].

Viloyat tumanlari orasida eng katta mehnat salohiyatiga ega hudud Quva tumani hisoblanadi. Bu yerda mehnat resurslari soni 142,2 ming kishini tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarda Buvayda 130,6 ming kishi, Uchko‘prik 127,2 ming kishi, Beshariq 126,0 ming kishi va O‘zbekiston tumani 124,3 ming kishi joylashgan. Shuningdek, Oltiariq tumanida mehnat resurslari soni 123,5 ming kishi, Bag‘dod tumanida 122,0 ming kishi, Farg‘ona tumanida 119,1 ming kishi, Rishton tumanida 114,6 ming kishi, Toshloq tumanida 114,2 ming kishi, Qo‘shtepa tumanida 111,7 ming kishini tashkil etadi. Eng past ko‘rsatkich So‘x tumanida kuzatilgan bo‘lib, mehnat resurslari soni 46,3 ming kishiga teng. Bu esa geografik joylashuv va aholi sonining kamligi bilan izohlanadi.

Viloyat shaharlarida ham mehnat resurslarining sezilarli qismi jamlangan. Jumladan, Farg‘ona shahrida

mehnat resurslari soni 224,2 ming kishi, Qo‘qon shahrida 165,8 ming kishi, Marg‘ilon shahrida 130,7 ming kishi, Quvasoy shahrida esa 55,4 ming kishini tashkil etadi. Mazkur shaharlar viloyatning sanoat, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik markazlari sifatida mehnat bozorining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

2025-yilda Farg‘ona viloyatida ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasi 4,8 foiz ga juda yaqin. shsizlik darajasi bo‘yicha esa Farg‘ona viloyati respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga yaqin bo‘lib, Qashqadaryo viloyatidagi 5,4 foiz ko‘rsatkichdan past, Toshkent viloyatidagi 4,4 foiz ko‘rsatkichdan esa yuqori hisoblanadi. Bu esa Farg‘ona viloyatida mehnat resurslari hajmi juda katta bo‘lishiga qaramay, ularni bandlik bilan ta’minlash bo‘yicha muayyan natijalarga erishilganligini ko‘rsatadi.

Tumanlar kesimida ishsizlik darajasining hududiy tafovutlari Farg‘ona viloyati mehnat bozorining ichki tarkibini baholashda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha o‘rtacha ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tumanlar kesimida ushbu ko‘rsatkich 4,2 foizdan 5,7 foizgacha o‘zgaradi. Bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat resurslari hajmi, tadbirkorlik muhiti va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlaridagi tafovutlarni aks ettiradi.

Eng yuqori ishsizlik darajasi O‘zbekiston tumanida 5,7 foiz qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkich viloyat o‘rtacha darajasidan 0,8 foizga yuqori bo‘lib, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining talabga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatadi. Tumanda aholi sonining ko‘pligi va mehnat yoshidagi aholining muntazam ortib borishi yangi ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu sababli mazkur hududda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ikkinchi yuqori ko‘rsatkich So‘x tumanida 5,6 foiz kuzatilgan. So‘xning eksklav hudud sifatida geografik jihatdan alohida joylashganligi uning mehnat bozori rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hududning transport-logistika imkoniyatlari cheklanganligi, investitsion jozibadorlik darajasining nisbatan pastligi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ishsizlik darajasining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Quva tumanida ishsizlik darajasi 5,3 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, Quva tumani viloyatda eng yirik mehnat resurslariga ega hududlardan biri bo‘lib, mehnat resurslari soni 142,2 ming kishiga teng. Bu holat tumanda mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchi hajmi juda katta ekanligini ko‘rsatadi. Natijada mavjud iqtisodiy faoliyat turlari barcha mehnat resurslarini to‘liq band qilish imkonini bermayapti.

Rishton va Farg‘ona tumanlarida ishsizlik darajasi 5,2 foizni tashkil etadi. Rishton tumanida iqtisodiyotning asosiy qismi hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligiga tayanadi. So‘nggi yillarda turizm va kulolchilik rivojlanayotgan bo‘lsa-da, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yuqoriligicha qolmoqda. Farg‘ona tumanida esa viloyat markaziga yaqin joylashganligiga qaramay, qishloq hududlarida yashovchi aholining katta ulushi bandlik muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Oltiariq, Bag‘dod, Toshloq va Qo‘shtepa tumanlarida ishsizlik darajasi 5,1 foizni tashkil etgan. Ushbu tumanlar viloyatning agrar hududlari hisoblanib, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining ulushi yuqori. Mazkur holat mavsumiy bandlikning kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Natijada yil davomida doimiy ish bilan ta’minlanmagan aholi qatlamlari shakllanadi.

Beshariq tumanida ishsizlik darajasi 5,0 foizni tashkil etgan bo‘lib, viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan biroz yuqori hisoblanadi. Tumanda qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq bo‘lsa-da, keyingi yillarda xizmat ko‘rsatish va kichik biznesning rivojlanishi ishsizlik darajasining keskin oshib ketishining oldini olmoqda.

Viloyat o‘rtacha darajasidan past ko‘rsatkichlar Buvayda va Uchko‘prik tumanlarida kuzatilgan. Buvayda tumanida ishsizlik darajasi 4,3 foizni tashkil etadi. Tumanda aholi bandligini ta’minlashda dehqonchilik, xizmat ko‘rsatish va kichik tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi. Aholining tadbirkorlik faolligi yuqoriligi mehnat bozoridagi bosimni kamaytirishga xizmat qilmoqda [6].

Eng past ko‘rsatkich Uchko‘prik tumanida qayd etilgan bo‘lib, ishsizlik darajasi 4,2 foizni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha eng yaxshi natija hisoblanadi. Tuman iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish, savdo va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganligi aholini ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu sababli Uchko‘prik tumani Farg‘ona viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lgan hududlardan biri sifatida ajralib turadi.

Yuqoridagi tahlilar shuni ko‘rsatadiki tumanlar kesimida ishsizlik darajasining hududiy farqlanishi 1,5 foizni tashkil qilmoqda yani 5,7 foizdan 4,2 foizgacha tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich viloyat hududlarida iqtisodiy

rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va tadbirkorlik muhitining bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Tashqi migratsiya masalalariga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Bu borada Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, mehnat migrantlari bugungi kun talabi asosida kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitilmoqda.

Shuningdek, kelajakda migrantlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash maqsadida xorijda ishlayotgan fuqarolarning mehnat staji hisobga olinib, ularga ham o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ro‘yxatga olish va mehnat stajini hisoblash tizimi tatbiq etilmoqda. Mehnat migrantlariga yo‘l haqi, patent va sug‘urta xarajatlari uchun past foizda 10 million so‘mgacha kreditlar ajratilmoqda. Xorijdagi fuqarolarimiz huquqiy himoyasini to‘laqonli ta'minlash uchun onlayn platforma va koll-markaz tashkil etilib, malakali advokatlar xizmati yo‘lga qo‘yildi. Bu boradagi ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Bu raqamlar Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan qarorida o‘z aksini topgan. Shuningdek, mazkur hujjatda 2021 yilda mehnat organlari tomonidan 513 575 nafar fuqaroga bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi belgilangan. Shuningdek, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2021 yilda aholi bandligiga ko'maklashish uchun subsidiya, nafaqalar va mikrokreditlar ajratish prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Xususan, joriy yilda subsidiyalar uchun 92,3 milliard so'm, ishsizlik nafaqalari to'lab berish uchun 65,1 milliard so'm, ishsiz, ish izlayotgan fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish xarajatlarini qoplash uchun 40,6 milliard so'm mablag' ajratiladi. Joriy yilda yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga 125 milliard so'm resurs ajratish ko'zda tutilmoqda.

Qarorning yana bir muhim jihati shundaki, davlat dasturini o'z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan bir qator vazirlik va idoralar rahbarlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha mas'ul etib belgilab qo'yildi. Bu esa dastur parametrlarini qog'ozda emas, amalda bajarishga zamin yaratadi.

Endilikda vaqtincha, mavsumiy va bir martalik ishlarda (vaqtincha ishlarda) band bo'lgan fuqarolarning mehnat faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha yangi tizim yaratiladi. Unda vaqtincha ishlarda band bo'lgan fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, ish beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga vaqtincha ishlarda band bo'lgan fuqarolarni yollash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etish masalalarida maslahat va uslubiy yordam berish, vaqtincha ishlarda band bo'lgan fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilish, ularga mehnat qurollari, shaxsiy himoya vositalari va maxsus kiyimlar bilan ta'minlash xizmatlarini ko'rsatish kabi masalalar nazarda tutilgan.

Tegishli vazirliklar tomonidan 2021-yil 1-iyulga qadar yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha hisobotlarni yuritish, ularni real vaqt rejimida Davlat soliq qo'mitasining yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasi bilan monitoring qilishga mo'ljallangan elektron dastur ishlab chiqiladi.

Muhim jihatlardan yana biri shuki, uch oy muddatda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanlar (shaharlar) hokimlarining qarori bilan belgilangan ish o'rinlarining eng kam soni va ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlari zaxiraga qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida aks ettirilishi ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bu yilgi dastur boshqa dasturlardan tubdan farq qilgan holda, mutasaddilar zimmasiga katta vazifalarni yuklash bilan birga, ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga, mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu sa'y-harakatlar natijasida aholi farovonligi yanada oshib, turmush darajasi ko'tarilishiga erishiladi [1].

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng yirik mehnat resurslari salohiyatiga ega hududlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Viloyatda mehnat resurslari sonining muntazam ortib borishi, aholi zich-

ligining yuqoriligi va urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi hudud iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Shu bilan birga, tumanlar kesimida mehnat resurslari va ishsizlik darajasining sezilarli hududiy tafovutlari mavjudligi yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan hududlarda bandlikni ta'minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Kelgusida mehnat resurslarini boshqarishda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda bandlik dasturlarini takomillashtirish, kasb-hunar ta'limini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, tashqi mehnat migratsiyasini tizimli boshqarish hamda investitsion loyihalar orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish Farg‘ona viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvaliyev X.A., Mirzatillayev J.Z. Farg‘ona viloyati mehnat bozori va uning ayrim jihatlari // Yashil O‘zbekiston: landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash masalalari*:* xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Farg‘ona, 2025. – B. 9–13.
2. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Х. Норасмий меҳнат бозорлари шаклланишининг геодемографик хусусиятлари//Ўзбекистонда бозор ислоҳотлари шароитида банд бўлмаган аҳоли муаммоларини ечишда олий таълим муассасаларининг ролини ошириш. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Фарғона шаҳри, 11-12 февраль 2019 йил
3. Атажанов М.М. Совершенствование территориальной структуры системы социальной инфраструктуры в сельской местности // Электронное научно-практическое периодическое международное издание «Экономика и социум», 2021. №7 (86).-С.219-222.
4. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари (Монография). – Т.: Наврўз, 2016. – 168 б.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/4013356
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–366-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024 [Elektron resurs]. – URL: https://www.stat.uz